

O‘ZBEKISTON — AQSH: STRATEGIK SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gor boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuvda AQSH Davlat kotibining o‘rinbosari Kristofer Landau va boshqa rasmiy shaxslar ham ishtirok etdi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarning joriy yil 23-sentabr kuni Nyu-York shahrida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Serjio Gor davlatimiz rahbariga AQSH Prezidenti Donald Trampning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

Jadal siyosiy muloqot, turli darajalardagi almashinuvlar va faol ishbilarmonlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, oktabr oyi boshida AQSH Savdo palatasi delegatsiyasining tashrifi muvaffaqiyatli o‘tdi.

Qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida sanoat, moliya, muhim minerallar, energetika, raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi loyihalarni ilgari surish dolzarbligi ta’kidlandi.

Tomonlar xavfsizlik, terrorizm va ekstremizm, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohalarida sheriklikni mustahkamlash masalalarini ham muhokama qildilar.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Bo‘ljak tadbirlar rejasi, shu jumladan, kelgusi hafta Vashington shahrida “C5+1” formatidagi sammitni o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

SERBIYA PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich 28-31-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar o‘tkaziladi, ularda O‘zbekiston — Serbiya ko‘p qirrali hamkorligini yanada rivojlantirishning istiqbollari muhokama qilinadi.

Mashinasozlik, agrosanoat, farmatsevtika, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, turizm va boshqa muhim yo‘nalishlarda sheriklikni mustahkamlash masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Tartibli mehnat migratsiyasi, madaniy-gumanitar va ta’lim

sohalaridagi hamkorlikning joriy holati va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi.

Muzokaralar yakunida ikki tomonlama bitimlar to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

Aleksandr Vuchich faxriy mehmon sifatida shu hafta Samarqand shahrida boshlanadigan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida ham ishtirok etadi.

O‘ZA

GEOLOGIYA SOHASI ILG‘OR XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev geologiya sohasiga ilg‘or xalqaro tajriba va kompetensiyalarni joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Yig‘ilishda mamlakatimiz geologiya tizimini zamonaviy ilmiy va texnologik asosda rivojlantirish, qazilma boyliklar bo‘yicha resurs bazasini kengaytirish hamda mineral xomashyoni chuqur qayta ishlashni ta’minlash dolzarb vazifa ekani ta’kidlandi.

Dunyo tajribasi geologiya-qidiruv ishlarini o‘tkazish murakkab bo‘lgan hududlarda ham sun‘iy intellekt yordamida yangi konlarni aniqlash mumkinligini ko‘rsatayapti. Bu borada regional tadqiqotlarni kengaytirish va zamonaviy geofizik usullardan foydalanish qo‘l keladi.

Shu maqsadda mutasaddilar xalqaro hamkorlar, shu jumladan, kon-geologiya sohasida dunyoda ilg‘or bo‘lgan AQSHning Kolorado konchilik maktabi bilan birgalikda ilmiy tadqiqot va amaliy ishlarni birlashtiruvchi zamonaviy

Kompetensiyalar markazini tashkil etish loyihasi to‘g‘risida axborot berdi.

Markazning asosiy vazifalari qidiruv ishlariga raqamli yechimlar, sun‘iy intellekt va aerogeofizik texnologiyalarni joriy etishdan iborat bo‘ladi. Ilg‘or xorijiy tajribaga asoslanib, ma’lumotlarni raqamli shaklda tahlil qilish, geokimyoviy va kosmogeologik tadqiqotlar natijalarini integratsiyalash hamda istiqbolli konlarni aniqlashni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma’qullab, tarmoqda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali istiqbolli maydonlarni aniqlash va o‘zlashtirishni tashkil etish yuzasidan qator topshiriqlar berdi.

O‘ZA

MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR VA DAVLAT BUDJETI PARAMETRLARI MUHOKAMA QILINDI

27-oktabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishda joriy yilda iqtisodiyotda kutilayotgan natijalar va 2026-yil uchun mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar muhokama qilindi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyotimiz prognozdan ancha yuqori sur‘atda — 7,6 foizga o‘tdi. Sanoat hajmi 6,8 foiz, qurilish — 14,2 foiz, xizmatlar — 14 foiz, qishloq xo‘jaligi — 4,1 foizga oshdi.

Oltin-valyuta zaxiralari o‘tgan yilga nisbatan 35 foizga ko‘payib, 55 milliard dollarga yetdi. Nufuzli xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz iqtisodiy istiqbollarini yuqori baholamoqda. “Fitch Ratings” ilk bor mamlakatimiz suveren reytingini bir pog‘onaga oshirgan bo‘lsa, “Moody’s” va “S&P Global” o‘z kutilmasini “barqaror”dan “ijobiy”ga o‘zgartirdi.

— Eng muhimi, erishilgan natijalar aholi farovonligini oshirishga xizmat qilyapti, — dedi davlatimiz rahbari.

Aholi daromadlari 18,4 foizga, omonatlar 35,3 foizga, o‘rtacha ish haqi esa 19,2 foizga o‘tdi. So‘rovlar aholi va biznes o‘rtasida ishonch muhiti kuchayganini, yangi ish o‘rinlari va daromad manbalari kengayayotganini ko‘rsatmoqda.

Prezident yuqori o‘shish sur‘atlarini yil yakunigacha saqlab qolib, yalpi ichki mahsulot hajmini 135 milliard dollardan oshirish iqtisodiy kompleksning asosiy vazifasi bo‘lishini qayd etdi.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda kelgusi yil uchun asosiy rejalar ko‘rib chiqildi.

Mutasaddilar 2026-yilda o‘shish sur‘atini 6,6 foiz darajasida ta’minlab, yalpi ichki mahsulot hajmini 150 milliard dollardan oshirish, iqtisodiyotga barcha manbalardan kamida 400 trillion so‘m yo‘naltirish, inflyatsiyani 7 foizdan ortiq bo‘lmagan darajada saqlab qolish prognoz qilingani yuzasidan axborot berdi.

Prezidentimiz bu rejalarga erishish uchun barcha imkoniyat va sharoit mavjudligini ta’kidlab, har bir vazirlik, tarmoq va hudud

rahbarlari jiddiy e‘tibor qaratishi zarur bo‘lgan muhim masalalarni ko‘rsatib o‘tdi.

2026-yilgi budjet loyihasida asosiy soliq stavkalari o‘zgarishsiz qolayotgan sharoitda byudjet daromadlarini izchillik bilan oshirib borish, shu bilan birga, xarajatlar qismining samarali sarflanishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish shartligi qayd etildi.

Ta’kidlanganidek, kelgusi yilda xarajatlarni keskin qisqartirish va samaradorlikni oshirish barcha darajadagi rahbarlar uchun asosiy mezon bo‘ladi.

Bunda strategik tarmoqlarda tannarxni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat ishtirokidagi korxonalarning dividend siyosatini tartibga solish, subsidiya va imtiyozlarning natijadorligini tahlil etib, samarasi past bo‘lganlarini bekor qilish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, tuman va shahar budjetlarining daromadlarini ko‘paytirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘lari ishtirokidagi loyihalarni jadallashtirish, bundan buyon mavjud loyihalarni oxiriga yetkazibgina yangi loyihalarga resurs jalb qilish tizimiga o‘tish zarurligi qayd etildi.

Vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari to‘plangan qoldiqning yarmini alohida jamg‘armaga o‘tkazish va ushbu mablag‘larni maktablar qurilishiga va tibbiyotga yo‘naltirish topshirildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalardan kelib chiqib, 2026-yilgi Davlat budjeti loyihasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

O‘ZA

Xalqaro forum

BIRDAMLIK VA TINCHLIK SARI QAT‘IY QADAM

Shunday voqealar bo‘ladi: ular xalqlarning o‘zaro birdamligi, mehr-oqibati va do‘stlikka sadoqatini mustahkamlaydi. Joriy yil 15-16-oktabr kunlari Farg‘ona shahrida bo‘lib o‘tgan “Farg‘ona vodiysi: tinchlik va taraqqiyot yo‘lida birdamlik” mavzusidagi forum ana shunday muhim voqealar qatoriga kiradi.

Bu anjuman mintaqada, qolaversa, global miqyosda ham tinchlikni ta’minlash, yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini davom ettirish, barqaror taraqqiyotni jadallashtirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash sari qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi. Tadbirda Markaziy Osiyo davlatlari, MDHga a‘zo mamlakatlar, Yevropa va AQSHdan nufuzli delegatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari hamda yosh faollar ishtirok etdi.

Shu bilan birga, forum doirasida birinchi marta O‘zbekiston hududida “Intimак kuni” nomli tadbir tashkil etildi. Bu tashabbus Qirg‘izistonda 2023-yilda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, “intimак” atamasi qirg‘iz tilida “birdamlik” ma‘nosini anglatadi. Mazkur tashabbus mintaqada o‘zaro ishonch, muloqot va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim platformaga aylanib bormoqda.

Davomi 3-betda

Munosabat

SUN‘IY INTELLEKT FAQAT TEXNOLOGIYA EMAS, TARAQQIYOT FALSAFASIDIR

Jahonda axborot texnologiyalari taraqqiyoti shiddat bilan kechayotgan bir davrda sun‘iy intellekt mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligi mezoniga aylanmoqda. Zero, raqamli yechimlar, intellektual dasturlar va ma’lumotlar tahlili tizimini joriy etish nafaqat iqtisodiyot samaradorligini oshirish, balki davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va moliya sohalarida yangi bosqichni boshlash imkonidir.

Davlatimiz rahbari raisligida hudud va tarmoqlarda sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu soha milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berildi. Undan

kelib chiqadigan vazifalar nafaqat texnik yoki texnologik islohot, balki mamlakat taraqqiyotining strategik konsepsiyasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON — ULUG‘VOR G‘OYA!

INSONIYATNING AZALIY ORZUSI

Global tinchlik indeksi (GPI) ma’lumotlariga ko‘ra, 2014-yildan buyon global tinchlik bilan bog‘liq vaziyat har yili yomonlashmoqda. So‘nggi o‘n yilda 100 ta davlatda vaziyat keskinlashgan. Hozir 59 ta faol mojaro o‘chog‘i mavjud bo‘lib, bu Ikkinchi jahon urushi tugaganidan beri eng yirik ko‘rsatkichdir.

2024-yilda mojarolar bilan bog‘liq 152 mingta o‘lim holati qayd etilgan. Hozir dunyo zamonaviy tarixdagi eng og‘ir gumanitar inqirozni boshdan kechirmoqda. 300 million odam yordamga muhtoj, majburiy ko‘chirilganlar soni esa rekord darajaga — 123,2 million kishiga yetdi. Bu raqam oddiy statistika emas, balki sayyora aholisining har 73 nafariga ta’sir qilayotgan misli ko‘rilmagan darajadagi insoniy azob-uqubatlarni aks ettiradi.



Buyuk o‘zbek yo‘li

Tashvishli jihati shundaki, ocharchilikdan aziyat chekayotganlarning 70 foizi nizoli hududlarda yashaydi. Shunday xabarlarini o‘qib, dono xalqimizning sodda, rangi ro‘yung somon bo‘lmas” degan maqoli yodga tushadi. O‘zbekiston tinchlik va xavfsizlik bo‘yicha 163 davlat orasida 60-o‘rinni egalladi.

Davlatimiz rahbari BMTning 80-sammitidagi nutqida ham qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchayayotgani, texnologik va ijtimoiy tengsizlik oshayotgani, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib borayotganini aytdi. Bu yangi, xavotirli geosiyosiy voqealarni vujudga keltirayotganini ta’kidladi.

Xalqimizning “Yon qo‘shning — jon qo‘shning” degan maqolida hayotiy falsafa bor. Biz bir muddat qo‘shnilardan uzoqlashdik. Aziyatini esa xalq chekdi. Chegaralar ortida qolgan yaqini, do‘stini ko‘rolmadi, yaxshi kunida xursand, yomonida dardkash bo‘lmadi.

Ha, bu o‘tmishda qoldi. Davlatimiz rahbari BMT minbaridan sakkiz yil muqaddam Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat‘iy qaror qilganini aytgandi. Bu qaror amalga oshdi, va‘da bajarildi. Prezidentimiz “Bugun chuqur mamnuniyat bilan ta’kidlash mumkin: biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi”, deya baralla aytdi.

Davomi 3-betda



SUN’IY INTELLEKT FAQAT TEKNOLOGIYA EMAS, TARAQQIYOT FALSAFASIDIR



Munosabat



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
qo‘mita raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Sun’iy intellekt bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining eng dolzarb va strategik yo‘nalishiga aylandi. Jahon iqtisodiyotida 2030-yilga borib, sun’iy intellekt sohasi qiymati 15 trillion dollardan oshib, yangi tahlillarga ko‘ra, 20 trillion dollardan ham ortiq bo‘lishi kutilayotgani yo‘nalishdagi raqobatning naqadar kuchayganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Sun’iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi, sohaning huquqiy va tashkiliy asoslari yaratildi. Davlat xizmatlari, bank-moliya, jamoat xavfsizligi, transport, geologiya va boshqa yo‘nalishlarda 30 dan ziyod pilot loyiha amalga oshirildi. Bu yurtimizda intellektual iqtisodiyotga o‘tish jarayoni izchil boshlanganidan darakdir.

Har bir davlat bugungi raqamli dunyoda nafaqat tabiiy resurslar, balki ma‘lumotlar, bilim va algoritmlar uchun raqobat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, belgilab berilgan ustuvor vazifalar axborot mustaqilligini ta‘minlovchi tarixiy qarordir.

Sun’iy intellektni joriy qilish orqali davlat boshqaruvida shaffoflik, tezkorlik va samaradorlik oshadi. Masalan, soliq, adliya va bojxona tizimlarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashgan xizmatlar yo‘lga qo‘yilib, inson omilining ta‘siri kamaymoqda. Bu esa korruptsiyaga qarshi kurashning zamonaviy usuli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz “Bundan buyon vazirlik va idoralar ma‘lumotlarni o‘z serverlarida saqlashiga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb qat’iy ta’kidlagani ma‘lumotlar aylanmasidagi tartib va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan strategik qaror hisoblanadi.

Yig‘ilish chog‘ida davlatimiz rahbari milliy tilga oid juda muhim fikrni ham bildirdi: “Sun’iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun, ular, avvalo, o‘zbek tilini mukammal darajada tushunishi zarur”. Bunda chuqur ma’no bor. Sun’iy intellekt faqat texnik tizim emas, u millatning ma’naviy kodini ham o‘zlashtiradi. Agar biz o‘z tilimizni, milliy adabiyot va ilmiy merosimizni raqamlashtirmasak, kelgusi avlodlarning intellektual modellari o‘zligimizdan uzoqlashishi mumkin.

Shu maqsadda “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish vazifasi belgilandi. Bu nafaqat tilni, balki madaniyatimizning raqamli izini saqlab qolish loyihasidir. 2026-yilga qadar “Data Lake” platformasini ishga tushirish rejsi ham milliy ma‘lumotlar ekotizimini yaratish sari tashlangan muhim qadamdir.

Yig‘ilishda Urganch shahri tajribasi alohida tilga olindi. Xorazm markazida sun’iy intellekt asosida “Aqli shahar tizimi” ishga tushirilib, elektr, gaz, suv, transport va chiqindilar boshqaruvi yagona platforma orqali integratsiya qilindi. Bu tizim hisobidan 16 milliard so‘mlik tejamkorlikka erishilgani sun’iy intellektning amaliy foydasini yaqqol ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari barcha hududlarga shu tajribani o‘rganib, shu yil yakunigacha o‘z tizimida joriy etish topshirig‘ini berdi. Bu innovatsiya markazdan boshlanib, joylarda mustahkamlansin degan yangi boshqaruv falsafasidir.

Bugun davlatning o‘zi sun’iy intellekt infratuzilmasini qura olmaydi. Shu bois, “DataVolt” kompaniyasi bilan 150 million dollarlik investitsiya asosida 12 megavattli “Data-markaz” ishga tushiriladi. Keyingi bosqichda bu quvvat 500 megavattgacha oshiriladi.

Qoraqalpog‘istonda sun’iy intellekt infratuzilmasiga 100 million dollardan ortiq sarmoya kiritgan investorlarga elektr narxini 5 sent etib belgilash, IT-park imtiyozlarini taqbiq etish kabi choralar investorlar uchun haqiqiy motivatsiya beradi. Aslida, bu yangi “texnopolislar davri”ni boshlab beradi. Bu yerda faqat iqtisodiy emas, balki intellektual sarmoya ham jamlanadi.

Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan Sun’iy intellekt alyansi milliy ilmiy-

innovatsion ekotizimning strategik poydevori bo‘ladi. Bu alyans tarkibida yetakchi kompaniyalar, xorijiy ekspertlar, vatandosh olimlar, banklar va universitetlar ishtirok etadi.

Alyansning vazifalari xalqaro tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, milliy dasturlar bo‘yicha mediakontent yaratish, milliy mutaxassislarni xalqaro maydonga olib chiqishdan iborat. Ushbu tashabbus O‘zbekistonnin jahon sun’iy intellekt xaritasida faol ishtirokchi sifatida ko‘rsatadi.

Umuman aytganda, 2030-yilga borib sun’iy intellekt bo‘yicha dunyodagi “Top-50” davlat qatoriga kirish maqsadi shunchaki raqam yoki reyting emas, balki yangi O‘zbekistonning intellektual istiqboli uchun “yo‘l xaritasi”dir.

Sun’iy intellekt bugun faqat texnologiya emas, balki yangi davlatchilik madaniyati, yangi fikrlash uslubi, yangicha iqtisodiy modeldir. Mazkur yo‘lida qadam tashlagan har bir yosh, har bir mutaxassis yangi O‘zbekistonning kelajagi uchun mas’ul.

Bugun dunyoda iqtisodiy modellari o‘zgarmoqda. Sanoat iqtisodiyoti o‘rnini bilim iqtisodiyoti, resurslar o‘rnini ma‘lumotlar iqtisodiyoti egallamoqda. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt yangi sivilizatsiya ramzi, yangi iqtisodiy tafakkur mezon bo‘lib bormoqda.

Asosiy vazifa bu jarayonni ko‘chirish emas, balki uni milliy ong bilan qayta yaratishdir. Chunki har bir innovatsiya millat ruhiga mos bo‘lmasa, uning samarasi uzoqqa bormaydi. Shu ma’noda, sun’iy intellekt milliy g‘oya va milliy iqtisod bilan uyg‘unlashganda, u faqat texnologiya emas, taraqqiyot falsafasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt bugungi kunda faqat texnologiya emas, tafakkur, dunyoqarash va yangi insoniy mezonidir. Uning ortida ijodkor inson, tahlilchi olim va mas’uliyatli fuqaro turadi. Shu bois, uning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy jarayondir. Insonning o‘zini, jamiyatni va davlatni anglash darajasi ortishi bilan sun’iy intellektning samarasi ham oshadi.

Yangi O‘zbekistonning istiqbolli rivojlanish yo‘li aynan shu falsafaga tayanadi: intellektual taraqqiyot orqali adolatli va raqobatbardosh jamiyat qurish. Dunyoda raqobat endilikda resurs emas, tafakkur atrofida kechmoqda. Shu jihatdan, sun’iy intellekt yangi O‘zbekiston tafakkuri ramzi, yangi iqtisodiy voqeqlik mezonidir.



Hamkorlik

UNESCO VA O‘ZBEKISTON: YOSHLAR UCHUN ISTIQBOL UFQLARI

**Qadimiy Samarqand shahrida
joriy yil 30-oktabr –
13-noyabr kunlari UNESCO Bosh
konferensiyasining 43-sessiyasi
bo‘lib o‘tadi.**



**Samarkand
2025**

2023-yilda UNESCO tomonidan Bosh konferensiya 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilingan edi. Tashkilotga a’zo 195 davlat tomonidan qabul qilingan mazkur tarixiy qaror, shubhasiz, O‘zbekistondagi tizimli islohotlarga berilgan yuksak bahodir.

Bosh konferensiya UNESCOning oliy organi, uning sessiyalari har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Tashkilotning o‘tgan 80-yillik tarixi mobaynida Bosh konferensiya sessiyasi faqatgina bir marta, ya’ni 1985-yilda Bolgariyaning Sofiya shahrida bo‘lib o‘tgan. Qolgan barcha sessiyalar UNESCO bosh qarorgohi bo‘lmish Parij shahrida tashkil etilgan.

UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasini o‘tkazish uchun Samarqand shahri tanlanishi bejiz emas, bunda chuqur ramziy ma’no mujassam. Zero, ushbu ko‘hna va hamisha navqiron shahar azaldan tarixiy uchrashuvlar, tamaddunlar muloqoti markazi bo‘lgan. Bu yerda turli madaniyatlarda o‘zaro kesishib, bir-birini to‘ldirib, boyitib kelgan.

Eng muhimi, UNESCO anjumani doirasida O‘zbekistonning madaniy-tarixiy, ilmiy-ma’rifiy, sayyohlik imkoniyatlari, dunyo tamadduniga qo‘shgan olamshumul hissasi xalqaro hamjamiyatga namoyish etiladi.

Xalqaro konferensiya oldidan Samarqandda qator tadbirlar, uchrashuvlar o‘tkazilmoqda. Xususan, 27-28-oktabr kunlari 14-UNESCO yoshlar forumi bo‘lib o‘tyapti.

“Iqlim harakati va uning ijtimoiy ta’siri, ayniqsa, yoshlar uchun” mavzusiga bag‘ishlangan ushbu yirik xalqaro anjuman UNESCO va O‘zbekiston hamkorligida tashkil etildi.

Yoshlarning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashdagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, g‘oyalarni global miqyosda ilgari surish va barqaror kelajakni shakllantirishda ularning ovozi uchun kuchaytirish maqsadida o‘tkazilayotgan ushbu forum oldidan ishtirokchilar uchun Samarqandning madaniy sayohati va interaktiv “Icebreaker” tanlovi tashkil etildi. O‘zbekiston San’at va madaniyat jamg‘armasi tashabbusi bilan

xalqaro san’at loyihasiga bag‘ishlangan “Bag‘rikenglik kemasi” konserti bo‘lib o‘tdi. Ushbu loyiha turli davlatlardan bolalarni san’at orqali do’stlik, tinchlik va mehr g‘oyalarda birlashtiradi.

Ochilish marosimida so‘zga chiqqanlar “Generation of Action” (Harakat avlodi) shiori ostida o‘tadigan forum yoshlarning iqlim bo‘yicha ilgari surayotgan tashabbuslari, innovatsion g‘oyalari hamda global iqlim siyosatidagi o‘rni haqida fikr bildirdi. Tadbirda UNESCO bosh direktorining ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘yicha o‘rinbosari, O‘zbekiston hukumati vakillari, shuningdek, Nigeriya, Misr, Ispaniya, Boliviya va Braziliyadan yosh iqlim yetakchilari chiqish qildi. Forum davomida yoshlar o‘z g‘oyalari, startaplari va jamiyatni o‘zgartirishga qaratilgan loyihalarini taqdim etdi.

Anjuman doirasida tashkil etilgan “Youth Recommendations and Calls to Action” (“Yoshlar uchun tavsiyalar va harakatga chaqiriqlar”) sessiyasida yoshlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va barqaror rivojlanish yo‘nalishlarida o‘z tavsiyalarini ishlab chiqadi. Ushbu hujjat keyinchalik UNESCO Bosh konferensiyasiga yoshlar tavsiyalari sifatida taqdim etiladi.

Tadbirda “Project Cafe” doirasida dunyo bo‘ylab tanlab olingan yoshlar loyiholari muhokama qilindi. Forum yakuniy hujjat — “Yoshlar forumi natijalari” taqdimoti bilan yakunlandi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz UNESCO bilan hamkorlikda ta’lim, madaniyat, raqamli innovatsiyalar va yoshlar siyosati yo‘nalishida qator yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Mazkur nufuzli forum ham O‘zbekistonning yoshlar siyosati va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi faolligini yana bir bor namoyon etadi.

Yoshlar forumi ushbu hamkorlikning yangi bosqichi bo‘lib, O‘zbekiston yoshlarini global miqyosdagi qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb etish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTONNING YEVROPADAGI MAVQEYI MUSTAHKAMLANISHI BUTUN YEVROOSIYO UCHUN YANGI IMKONIYATLAR YARATADI

XORIJIY EKSPERTLAR O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING BRYUSSELGA TASHRIFI VA OLIY DARAJADAGI MUZOKARALAR YAKUNLARI HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23-24-oktabr kunlari Bryusselga rasmiy tashrifi va Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolaniishi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim bosqichni boshlab berdi.

Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari va Yevropa biznes yetakchilari bilan samarali muzokaralar siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik va strategik sheriklikni mustahkamlashda o‘zaro sadoqatni yana bir bor namoyish etdi.

O‘z navbatida, imzolangan yangi bitim nafaqat ikki tomonlama muloqotni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘taradi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqining mintaqadagi asosiy hamkori sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

Xorijiy ekspertlar ta’kidicha, mazkur tarixiy bitim imzolaniishi butun mintaq, umuman, Yevroosiyo bilan Yevropa Ittifoqi hamkorligi arxitekturasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Laslo VASA,
Vengriya xalqaro munosabatlar instituti katta maslahatchisi va katta ilmiy xodimi, Ishtvan Secheni nomidagi universitet professori:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Bryusselga rasmiy tashrifi O‘zbekiston tashqi siyosatini diversifikatsiya qilish va uning Yevropa bilan munosabatlarini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi. Tashrifdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida yangi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni imzolashdan iborat bo‘lib, u ikki tomonlama chegaradan tashqarida ham kengroq mintaqaviy va strategik ahamiyatga ega. Bu harakat



O‘zbekistonning xalqaro aloqalarini kengaytirish, islohotlar borasidagi yutuqlarni namoyish etish va Markaziy Osiyoning dinamik geosiyosiy muhitida o‘z ta’sirini kuchaytirish niyatidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yildan buyon O‘zbekistonnin zamonaviy, pragmatik va islohotchi davlat sifatida ko‘rsatib, uning xalqaro imijini o‘zgartirishga harakat qilmoqda. Mamlakatda uning ma’muriyati iqtisodiyotni liberalashtirish va ma’muriy modernizatsiyani boshladi. Xalqaro miqyosda Rossiya, Xitoy va G‘arb davlatlari bilan munosabatlarni muvozanatlashtirishga qaratilgan ko‘p vektorli tashqi siyosat yo‘lga qo‘yildi.

Shu nuqtayi nazardan, Bryusselga tashrif Yevropa bilan aloqalarni chuqurlashtirishda muhim qadamdir.

Diplomatik nuqtayi nazardan, tashrif O‘zbekistonning o‘zini ishonchli va konstruktiv sherik sifatida ko‘rsatish istagini ta’kidlaydi. YI O‘zbekistonning eng yirik

savdo hamkorlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Energetika, raqamlashtirish, transport aloqasi va ta’lim kabi sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish sezilarli iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

Yevropa, ayniqsa, Yevropa Ittifoqining Bryusselda joylashgan institutlari uchun O‘zbekiston Prezidentining tashrifi ahamiyati kam emas. Markaziy Osiyo Yevroosiyo chorrahasida joylashgani va Yevropani Osiyo bilan bog‘lovchi yangi savdo va energetika yo‘laklarida potentsial roli tufayli yana strategik manfaatlar mintaqasiga aylandi.

Mintaqadagi eng ko‘p aholiga ega, eng boy va markazda joylashgan davlatlardan biri — O‘zbekiston bilan aloqalarni mustahkamlash Ylga Markaziy Osiyoda “Global darvoza” strategiyasini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Mintaqaviy nuqtayi nazardan, O‘zbekiston yetakchisining Yevropa bilan aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida global noanqlik sharoitida yanada xilma-xil hamkorlikni rivojlantirish tendensiyasini aks ettiradi.

Vengriya va Markaziy Yevropaning boshqa davlatlari uchun ham bu tashrif alohida ahamiyatga ega. Vengriya “Sharqqa ochilish” siyosati doirasida Markaziy Osiyo diplomati va iqtisodiy aloqalarini rivojlantirmoqda va O‘zbekiston bu strategiyada asosiy hamkorga aylandi. YI va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash Vengriya kompaniyalari uchun, xususan, “yashil” energiya, transport va raqamli rivojlanish kabi sohalarida yangi imkoniyatlar ochishi mumkin. Bu, shuningdek, Vengriyaning YI va Markaziy Osiyo o‘rtasida ko‘pri bo‘lib xizmat qilish maqsadini qo‘llab-quvvatlaydi. Budapesht so‘nggi yillarda bu rolni faol ilgari surdi.

Bu diplomatik sa’y-harakatlarning muvaffaqiyati yangi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim qanchalik samarali amalga oshirilishi va O‘zbekistonning islohotlarni davom ettirish majburiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Xolid Taymur AKRAM,
“Umumiy kelajak jamiyati” tahlil
markazi ijrochi direktori (Pokiston):



— Ekspert sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Bryusselga rasmiy tashrifini katta qiziqish bilan kuzatdim. Bu tashrif, shubhasiz, nafaqat Toshkent, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega.

Birinchidan, Yevropa Ittifoqi bilan yangilangan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolaniishi O‘zbekistonning Yevropa bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mustahkamlash yo‘lidagi hal qiluvchi qadam bo‘ladi. Mazkur kelishuv O‘zbekistonning YI bilan munosabatlarida yangi sahifa ochib, mamlakatni savdo, sarmoya va boshqaruv sohasida Yevropa standartlariga yaqinlashtiradi.

Yashar NIYOZIY,
“ITNA Online” axborot agentligi bosh muharriri (Eron):

— Joriy yil 24-oktabr kuni Bryusselda muhim voqea bo‘lib o‘tdi, ya’ni O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida yangi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Hujjat



O‘zbekiston — Yevropa hamkorligini sifat jihatidan yangi strategik bosqichga ko‘tarishga qaratilgan.

Kelishuv tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari, jumladan, noqonuniy migratsiya, korruptsiya, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, shuningdek, chegaralarni boshqarish va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishni takomillashtirish bo‘yicha faol hamkorlikni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi muhim hamkoriga aylanib bormoqda. Joriy yilning aprel oyida tomonlar o‘zaro anglashuv memorandumini imzolagan bo‘lib, u Yevropa Ittifoqi iqtisodiyot uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mis, litiy, alyuminiy, titan, platina, grafit, nikel, kobalt kabi muhim xomashyolarda barqaror qiymat zanjirlarini rivojlantirish bo‘yicha strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yg‘an edi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2020-yildan buyon ikki baravar ko‘payib, 6,4 milliard yevroga yetdi.

Yangi bitim imzolaniishi har ikki tomon uchun imkoniyatlar ochadi. Xususan, Yevropa tomoniga O‘zbekiston va Markaziy Osiyo uchun transport-logistika zanjirlarini barqarorlashtirish hamda muhim xomashyodan muqobil foydalanish imkoniyatini beradi. O‘zbekiston uchun Yevropa Ittifoqida yangi tashqi bozorlar topish, xalqaro hamjamiyat e’tiborini suv va iqlim muammolariga qaratish, mintaqaviy xavfsizlik va tashqi siyosatdagi sheriklarni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

“Dunyo” AA



2025-yil 28-oktabr, 220-son

JARAYON

YANGI O‘ZBEKISTON

Bugun zamonaviy dunyoda davlatlar aholisining yashash darajasi ko‘p jihatdan o‘rtacha oylik maoshning miqdori, turar joy va avtomobil bilan ta‘minlanganlik holati kabi qator mezonlar asosida o‘lchanadi. Shu bilan birga, konditsioner, muzlatkich, televizor, gaz plitasi, kir yuvish mashinasi singari maishiy texnikalar ham odamlar mushkulini yengillashtirish bilan birga yaxshi va to‘laqonli hayot kechirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pchilik yaxshi biladi: yaqin-yaqingacha muzlatkich yoki kir yuvish mashinasi xarid qilish uchun necha oylab tejab-tergab pul jamg‘arishga to‘g‘ri kelardi. Bu turdagi mahsulotlar valyuta evaziga chetdan keltiriladi, shu bois, narxi ham yuqori bo‘lardi. Esimda, yangi uyga ko‘chib kingach, dastlab muzlatkich, keyin kir yuvish mashinasi sotib olganimizda oilamizda o‘zgacha bayramona shukuh paydo bo‘lgandi.

Bugun nafaqat poytaxtdagi yirik savdo do‘konlari, balki viloyat va tuman markazlaridagi savdo komplekslari ham yurtimizda ishlab chiqarilgan elektrotexnika vositalari bilan to‘lib-toshgan. Ushbu do‘konlarga adashib kirib qolsangiz ham sotuvchilar milliy brend yorlig‘i bilan ishlab chiqariladigan o‘nlab turdagi mahsulotlarning xususiyatini erinmay, katta ishtiyoq bilan tushuntiradi. Imkoniyatingiz yetmasa, kreditga, uning foizi ko‘plik qilsa, oymayo‘b bo‘lib to‘lashga ham istalgan maishiy texnikani olib ketish taklif qilinadi.

8,1 barobar o‘shish

O‘zbekiston bugun mintaqada elektrotexnika vositalari ishlab chiqaruvchi yirik sanoat markazlaridan biridir. Qisqa muddatda bu turdagi mahsulotlarning importyoridan ishlab chiqaruvchisiga aylanishning o‘zi bo‘lgani yo‘q. Buning zaminida sohaga e‘tibor va yaratilgan sharoitlar samarasi mujassam.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz elektrotexnika sanoatida izchil islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy quvvatlar barpo etildi. Ishlab chiqarish va eksport hajmi ortib bormoqda. Jumladan, joriy yilning 9 oyida tarmoqda ishlab chiqarish salmog‘i 16,3 foiz o‘shib, 34 trillion so‘mga yetdi. Eksport qiymati 970 million dollarni tashkil qildi. Oxirgi besh yilda elektrotexnika sanoatida 8,1 barobar o‘shisha erishildi. Aynan shu ko‘rsatkichning

Islohotlar samarasi



Elektrotexnika sanoati:

DUNYONING 72 MAMLAKATIGA EKSPORT AMALIYOTI

o‘zi ham mamlakatimizda mazkur yo‘nalish jadal taraqqiy etayotganini ko‘rsatadi. Yangi loyihalar hisobiga kelgusi yillarda yurtimizda mis ishlab chiqarish hajmi 250 ming tonnaga, 2030-yilga borib esa 500 ming tonnaga yetishi kutilmoqda. Ushbu xomashyo bazasidan foydalanib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, serverlar, sanoat elektronikasi, konditsioner, quyosh paneli, nazorat-o‘lchov va avtomatika vositalari, smart kartalar ishlab chiqarilmoqda. Umuman, bu yo‘nalishda 2,1 milliard dollarlik 157 ta loyiha shakllantirilgan bo‘lib, ular orqali 14,5 ming yangi ish o‘rni ochiladi.

Ayni paytda milliy mahsulotlarimizni xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyati kengaymoqda. O‘zbekiston standartlar instituti Xalqaro elektrotexnika komissiyasi baholash sxemasiga a‘zo organ sifatida qabul qilindi. Bu mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatining 53 davlatda tan olinishini ta‘minlaydi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi yevropalik hamkorlar bilan muvofiqlikni baholash tizimini yo‘lga qo‘ymoqda. Natijada O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga Yevropa Ittifoqi talablariga moslikni tasdiqlovchi “CE” belgisi beriladi. Bu esa Yevropaga eksport hajmini kamida ikki barobar oshirish imkonini yaratadi.

Tashqi bozor sari salmoqli yurish

Elektrotexnika sanoati — katta bozor. Unga kira olgan, o‘z o‘rmini egallagan davlatlar mo‘may daromadga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi eksport geografiyasi so‘nggi uch yilda 2 karra kengaydi. Ayni paytda yurtimizdagi 135 korxona 72 mamlakatga mahsulotlarini yetkazib bermoqda. 2027-yilga borib, birgina mazkur sohada eksport qiymatini 3 milliard AQSH dollariga yetkazish mo‘ljallanyapti.

“GSP+” imtiyozlaridan foydalangan holda Yevropa mamlakatlariga 22 korxona tomonidan qariyb 150 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Endi ushbu ko‘hna qit‘aning boshqa davlatlariga ham chiqish maqsadida Germaniya elektrotexnika uyushmasi Verband Deutscher Elektrotechniker bilan hamkorlik o‘rnatilib, 20 turdagi yangi mahsulotga xalqaro sertifikat olindi.

“O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig‘i ostida maishiy texnikalar ilk bor AQSH, Kanada, Hindiston, Liyviya, Kipr, Zambiya, Nigeriya, Qatar kabi mamlakatlar bozoriga kirib bordi. Jumladan, AQSHning o‘ziga 13 korxona, Turkiyaga 60, Birlashgan Arab Amirliklariga 19, Buyuk Britaniyaga 8, Rossiyaga 122, Qozog‘istonga 190 korxona o‘z mahsulotlarini yetkazib berdi.

Mamlakatimizning JSTga kirishi, avvalo, unga a‘zo 164 davlat bilan savdo aloqalarini kengaytirish imkonini beradi hamda mahalliy korxonalarni o‘z faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, sifatini oshirish va tannarxni pasaytirish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratishga undaydi.

Jahon tendensiyasiga ko‘ra, an’anaviy sotuv usullaridan ko‘ra, onlayn tarzda marketpleyslar orqali savdo qilish ancha-muncha byurokratik to‘siqlardan xalos etadi. Shu bois, bugun Buyuk Britaniyaning “Pitaks”, Fransiyaning “Auchan” va “Leroy Merlin”, Rossiyaning “M.Video — Eldorado”, “DNS Atlas” va “Wildberries” hamda Qozog‘istonning “Sulpak” va “Texnodom” kabi yirik savdo tarmoqlari orqali mahalliy mahsulotlar sotuvini kengaytirish borasida aniq choralar ko‘rilmog‘da.

Xalqaro brendlar bilan hamkorlik

— Xorijiy brend kompaniyalar bilan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish yo‘nalishida umumiy qiymati 900 million dollarga teng loyihalar paketi shakllantirildi, — deydi “O‘zeltexsanoat” uyushmasi raisi Mirziyod Yunusov. — Ushbu loyihalarda asosiy e‘tibor yangi ishlab chiqarish texnologiyalariga qaratilmoqda. Xususan,

poytaxtimizdagi sobiq “Toshkent mexanika zavodi” 2019-yili zamonaviy “Texnopark”ka aylantirildi. Hozir bu yerda umumiy qiymati 365 million dollardan ziyod 17 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron gaz hisoblagichlar, maishiy sovitkichlar, sanoat konditsionerlari va sovitsh tizimlari, suv nasoslari, lift va eskalatorlar, forma va qoliqlar ishlab chiqarishga oid yangi loyihalar ishga tushirildi.

Majmua faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ilk davrlardan qorib xoriyning mashhur brend kompaniyalari jalb qilindi. Birgina misol: 2019-yili “Samsung” kompaniyasi bilan maishiy sovitkichlar, Xitoyning “Shanghai Mitsubishi” kompaniyasi bilan lift va eskalatorlar, “Whirlpool China” kompaniyasi bilan kir yuvish mashinalari, Yaponiyaning “Shivaki” brendi ostida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun 500 kilogrammdan 3000 tonnagacha mahsulot saqlash sig‘imiga ega maxsus muzlatkichli omborlar, Italiyaning “Petro Fiorentini” kompaniyasi bilan elektron gaz hisoblagichlari, “LEO” brendi ostida elektr suv nasoslari ishlab chiqarilmoqda.

Hozir Rossiyaning “Rusal” kompaniyasi bilan hamkorlikda loyiha qiymati 400 million dollar bo‘lgan “Aluminiy list va rulon” ishlab chiqarish loyihasi ro‘yobga chiqarilayapti. Shuningdek, hamkorlarimiz orasida dunyoning qator taniqli brendlari ham bor. Ular bilan ayni paytda loyihalar ustida faol ishlayapmiz.

Sifat — bosh mezon

Bozorda sifatli mahsulotga talab doim yuqori. Sanoatda sifatli mahsulot olishda esa har bir bosqich, ayniqsa, xomashyoni qayta ishlash muhim o‘rin tutadi. Elektrotexnika tarmog‘ida yangi investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirishda xomashyoni chuqur qayta

ishlash hamda qo‘shilgan qiymat ulushini oshirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani boisi ham shunda.

Jahbada misga talab tobora ortib boryapti. Bu yurtimizda yashil energetika yo‘nalishidagi ko‘plab loyihalar bilan ham bog‘liq. Toshkent viloyatining Ohangoran tumanidagi “Eltex Industrial” texnoparkida umumiy qiymati 459 million dollarlik dastlabki 27 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ishlari jadal davom etmoqda. Bu juda yirik loyiha bo‘lib, 71,5 ming tonna mis xomashyosini qayta ishlash imkonini beradi. Qariyb 650,5 million dollarlik qo‘shimcha eksport yo‘lga qo‘yiladi, 4700 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Joriy yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarining 70 foizi Qoraqalpog‘iston va viloyatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Loyihalar doirasida 187,4 million dollarlik xorijiy investitsiya o‘zlashtirilib, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 1,1 barobar oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Eng talabgir mahsulot

Pandemiya sabab ko‘plab sanoat korxonalari faoliyati bir muddat to‘xtab qolgan edi. O‘shanda yarimo‘tkazgichlarga talab keskin oshib, avtomobilsozlik, elektrotexnika kabi qator muhim sanoat sohalarida kuchli inqiroz yuzaga kelgan edi. Ma‘lum bo‘lishicha, bunday turdagi mahsulotlar asosan Osiyo davlatlarida ishlab chiqarilar ekan. Yarimo‘tkazgichlaris esa bugun birorta sanoat yo‘nalishini topib bo‘lmaydi. Bu turdagi mahsulotlarga dunyo bozorida talab juda yuqori.

O‘zbekiston ham elektronika va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yayotgan davlatlarga safiga kirib bormoqda. Xususan, Malayziya va Singapur kabi yetakchi mamlakatlar tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash va bu orqali hamkorlikni kengaytirish borasida dastlabki harakatlari boshlangan.

Jumladan, Malayziyaning “MIMOS Berhad” tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizda mikroelektronika va yarimo‘tkazgichlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlarga erishildi. Bunda integral mikrosxemalar dizaynini yaratish, kremniy plastinalar ishlab chiqarish hamda yarimo‘tkazgichlarni yig‘ish va sinovdan o‘tkazish yo‘nalishlari qamrab olinadi. Yarimo‘tkazgichlar sanoatini yuritimizga olib kirish borasida Singapurning Mikroelektronika instituti bilan ham muzokaralar olib borilmoqda.

2025-2027-yillarda elektrotexnika sanoatida umumiy qiymati 2,1 milliard dollarlik 157 ta loyiha ro‘yobga chiqariladi. Shundan 656 million dollarlik loyiha shu yilning o‘zida ishga tushiriladi. Bu joylarda yangi korxonalar ishi boshlashi, bir necha o‘n minglab ish o‘rni ochilishini anglatadi. Qo‘shimcha qiymat yaratilib, mamlakatimizning jahon bozoridagi o‘rni mustahkamlanishidan darak beradi.

Yunus BO‘RONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Atrofimizni o‘rab turgan yashil olam tirikligimizning muhim manbaidir. Uning go‘zal manzaralari, so‘lim go‘shalari ko‘ngilga halovat baxsh etsa, noz-ne‘matlari sog‘lom va uzoq hayot kechirishimiz uchun bebaho tuhfa. Shu bois, ajdodlarimiz qadimdan ona tabiatni asrab-avaylab, yer osti va yer usti boyliklaridan tejab-tergab foydalanish, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashni asosiy vazifasi deb bilgan.

BARQAROR RIVOJLANISHGA

YO‘G‘RILGAN TASHABBUSLAR

Nuqtayi nazar

Biroq o‘tgan asrlarda sanoatning jadal rivojlanishi jarayonida bu tamoyillarga amal qilinmadi. Tabiatdan noratsional foydalanish oqibatida ekologik muvozanat buzildi. Bugun esa tabiat insoniyatning bu nomaqbul xatti-harakatlariga javob qaytarmoqda. Cho‘llanish, iqlim o‘zgarishi, chang-to‘zon hodisasi va boshqa tabiiy ofatlar buning isbotidir. Kelajak avlodlarni o‘ylagan insoniyat endi bu muammolarga oqilona yechim topish yo‘lida izlanmoqda. Shu maqsadda qator hujjatlar ishlab chiqilib, hamkorlikda tegishli chora-tadbirlar ko‘rilyapti.

Butun insoniyatni tashvishga solayotgan ekologik muammolar bizga ham begona emas. Ularning salbiy ta‘sirini mamlakatimizda ham yaqqol sezilmoqda. Ob-havo isishi, tabiiy resurslar zaxirasi kamayishi, suv, havo, tuproq ifloslanishi, kamayib turlarning yo‘qolib borishi kabi holatlar haqida bot-bot bong urilmoqda. Ammo bugun faqat muammo haqida gapirish bilan ish bitmaydi, bu yo‘nalishda amaliy ishlar qilinishi hayotning muhim talabiga aylanmoqda.

Mamlakatimizdagi islohotlar jarayonida ayni shu jihatlariga e‘tibor qaratilayotir.

Zero, bugungi va kelajak avlodlar taqdiri ekologik muammolarga samarali yechim topilishiga bog‘liq. Shu bois, so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda keng qamrovli ishlar qilinayapti. Xususan, xalqaro maydonda davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslar e‘tirof etilib, BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ular orasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim muammolariga bag‘ishlanganlari ham salmoqli ekani e‘tiborga molik.

Shu bilan birga, yurtimizda barcha sohadagi islohotlar jarayonida ekologik muvozanatni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilayapti. Masalan, suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tizimlari betonlashitirilyapti. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat bazasi yaratildi, sug‘oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalar joriy etildi. Bunday chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili 8 milliard metr kub suv tejaldi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida ham misli ko‘rilmagan ishlar bajarildi. Natijada elektr ishlab chiqarish



quvvati 2016-yilda 59 milliard kilovatt-soatni tashkil etgan bo‘lsa, bugunga kelib, 85 milliard kilovatt-soatga yetdi. Kelgusi yilda bu 97 milliard kilovatt-soatdan oshadi. Birgina shu yilning o‘zida 6,5 milliard kilovatt-soat “yashil” energiya ishlab chiqarilib, jami generatsiya quvvatida “yashil” energiya ulushi 30 foizga yetgan. 2030-yilgacha bu ko‘rsatkichni 54 foizga olib chiqish belgilangan.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida so‘zlagan nutqida insoniyat e‘tiborini yana bir karra ekologiya masalasiga qaratib, bu yo‘nalishda qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, mamlakatimizda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish, mazkur anjuman yakunlari bo‘yicha suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash, bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish ko‘zda tutilgani bayon etildi.

Iqlim migratsiyasining insoniyatga salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan

siyosat yuritish bo‘yicha Global pakt qabul qilish tashabbusi ilgari surildi. Shuningdek, sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish va “yashil” makon barpo etish dasturlarini qabul qilish xususida so‘z yuritildi.

Ayni paytda mamlakatimizda bu yo‘nalishda qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, “Yashil makon” dasturi doirasida har yili 200 million tup daraxt ekilmoqda. O‘tgan 3 yilda 698 ta bog‘ va 316 ta jamoat parki tashkil etildi. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektarli butazor barpo qilindi. Buni davom ettirgan holda, ko‘chatchilikka ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaliklari tashkil qilinib, ularda “ilm — loyiha — amaliyot” tamoyili asosida genetik seleksiya ishlari kuchaytirilib, urug‘chilik laboratoriyalari, intensiv tajiiba uchastkalari va “onalik” plantatsiyalari yo‘lga qo‘yilmog‘da.

Shu yil 26-sentabr kuni Prezidentimiz rahbarligida bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar ham tahlil etildi.

Mazkur dastur ijrosi muhokama qilinar ekan, bu yil bahorda ekilgan 137 million tup ko‘chatning 27,5 millioni qurib qolgan tanqid qilindi. Sababi — bahor va yoz o‘rtasida issiq kunlar tez kelishi oqibatida ekilgan ko‘chatlar unishga ulgurmayapti. Ularga odatdagidan 2-3 barobar ko‘p suv sarflashga to‘g‘ri kelmoqda. Shu munosabat bilan daraxtlarni kuzda ekishni ko‘paytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bu yilgi kuz mavsumida 125 million tup, bahorda yana 75 million tup daraxt va buta ekish rejalashtirildi. Bunda sug‘orish tizimi va imkoniyati yo‘q joylarga ko‘chat ekmaslik talab sifatida qo‘yildi.

Urbanizatsiya jarayoni tezlashib borayotgan shaharlar va viloyat markazlarida yashillik darajasini oshirish taqozo etilmoqda. Shaharlarni “yashil” standartlarga muvofiq ilmiy asosda rivojlantirish maqsadida olivlar, urbanistlar va ekologlar ishtirokida Toshkent va Nukus shaharlari, barcha viloyat markazlarining “yashil” master rejaları ishlab chiqilishi belgilandi. Ayni paytda shu yo‘nalishda ishlar davom etmoqda.

— “Yashil shahar” deganda ko‘z o‘ngimizda ko‘pincha faqat tabiatning so‘lim qiyofasi gavdalandadi, — deydi “Yashilloyiha” loyihalash instituti direktori o‘rinbosari Farhod Dehqonov. — Aslida, bu ancha murakkab jarayon. Bunda ko‘plab omillar nazarda tutiladi. Avvalo, shahardagi infratuzilma inshootlari ham qator mezonlarga to‘g‘ri kelishi lozim. Jumladan, transport, logistika, isitish, oqova, ichimlik suv tizimlarida ham resurs tejaydigan texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bugun qator rivojlangan shaharlarda bu borada ilg‘or tajribalar shakllanyapti. Masalan, Singapur, Yaponiya va Yevropa qit‘asidagi qator yirik megapolislar bunga misol.

Bu yo‘nalishda poytaxtimizda ham muayyan ishlar qilinayapti. Xususan, chorrahalarga o‘rnatilgan zamonaviy kameralar harakatni tartibga solish bilan birga tirbandlikning oldini olishga xizmat qilaypti. Qolaversa, ekologik sof transport vositalarini rivojlantirish choralari ko‘rilyapti.

Istish tizimlarini modernizatsiya qilish ham e‘tibordir. Viloyat markazlari va tumanlarda

bu borada keng qamrovli ishlar bajarilyapti. Xususan, joylarda jamoat parklari va yashil bog‘lar barpo etish barobarida qurilish, buniyodkorlik va obodonlashtirish jarayonida zamonaviy shaharsozlik me‘yorlariga amal qilish asosiy mezon etib belgilangan.

Joylarda keng jamoatchilik fikri asosida amalga oshirilayotgan “Mening bog‘im” loyihasi mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilashga hissa qo‘shmoqda. Joriy yilda shunday ikki yuzdan ziyod loyiha doirasida hududlarda yashil jamoat parklari, istirohat bog‘lari va boshqa yashil maskanlar barpo etilyapti.

“Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil davom ettirish, mintaqamizda yashil hududlarni kengaytirishda o‘rmon xo‘jaliklari tizimidagi ishlarning ham samarasi katta. Shu bois, joriy yilgi davlat dasturida bu borada muhim vazifalar belgilangan. Xususan, o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni 4,1 million gektarga yetkazish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,5 foizgacha kengaytirish hamda ularning ekoturizm, ko‘chatchilik va dorivorchiilik yo‘nalishlaridagi foydalanilmayotgan zaxiralarni aniqlab, imkoniyatlardan to‘liq foydalanish va aholining daromadini oshirish ko‘zda tutilgan.

O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi tomonidan bu borada joriy yil boshidan ishlab chiqilgan “yo‘l xarita”lari asosida amaliy ishlar ko‘lami kengaymoqda. Shu maqsadda respublika o‘rmon fondiga kiruvchi cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarida yer eroziyasining oldini olish maqsadida himoya o‘rmonlari barpo etish uchun 44 ta loyiha ishlab chiqilib, 3302 gektar yer maydoni tanlab olindi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, joriy yilning o‘tgan davrida “Yashilloyiha” loyihalash instituti mutaxassislari ishlab chiqqan loyihalar asosida 776 gektarda himoya o‘rmoni barpo etildi. Ayniqsa, Andijon, Xorazm, Sho‘rtan, Navoiy, Navbahor, Ohangoran va Qizirgi davlat o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan ushbu tadbirlar o‘z vaqtida sifatli amalga oshirildi.

Orolning qurigan tubi va cho‘l hududlarida saksovu, cherkez hamda qandim kabi buta nihollari ekildi va urug‘lari qadaldi. Tog‘ va tog‘oldi hududlarda asosan pista va bodom, nisbatan suvli yerlarda yong‘oq, na‘matk, o‘rik, sug‘oriladigan yerlarga terak, qayrag‘och, pavlovniya va shumtol kabi tez o‘suvtchi daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Asosiysi, himoya o‘rmonlari barpo etish ishlari hududlarning tuproq va iqlim sharoitini hisobga olingan holda bajarilmoqda.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, daraxt va butalarning ko‘karuvchanlik darajasi yer tayyorlash ishlarning sifatiga bog‘liq. Bunda yarlarga aynan belgilangan mavsumlar oratig‘ida ishlov berilishi, ko‘chatlar o‘z vaqtida agrotexnika me‘yorlar asosida ekilishi va parvarish qilinishi muhim. Shu kunlarda hududiy davlat o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan himoya (ihota) o‘rmonlari barpo etish ishlari qizg‘in davom etmoqda.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



To‘ylarimiz – o‘ylarimiz



moliyaviy betartiblik jamiyat ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini yemiruvchi illatlardir. Umuman, jadid bobolarimiz o'sha davrda millat va jamiyat inqirozini illatlarimiz, ayniqsa, to'y va boshqa tadbirlar o'tkazishdagi tartibsizliklar, kimo'zarga musobaqalashishda ko'rgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy “Bizni kemiruvchi illatlar” maqolasida to'y va azani millatni inqiroz va tahlikaga soladigan ikki qattol dushman sifatida ta'riflaydi. To'y va aza bizni bir kunmas bir kun devonaga aylantiradi, deydi. U bunday yozadi:

“Astag'firullo, subhonollo. Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat

beradigan joyga o'xshaydi. Karnay-surnay o'zbekning musiqiy qadriyati, odamlarda ko'ngilxushlik kayfiyatini uyg'otadigan urf. Ammo uning haddan tashqari qattiq va uzoq chalinishi aksariyat odamlarni bezdirish holatini yuzaga keltirmoqda.

Kelin-kuyov valsi, turmush qurayotgan yoshlarning “sevgi tarixi”dan xabar beruvchi videoroliklar, raqosalarining nojo'ya harakatlari, pul sochishlar — bularning barchasi to'qlikka sho'x'likdan boshqa narsa emas. Nazarimda, to'ydagi to'qchilik buzqlikni targ'ib qilayotgandek.

Yana bir o'ta muhim masala haqida fikr-lashishni lozim topdik. Gap to'y dasturxoniga

MAHALLA NIMA DEYDI, ODAMLAR-CHI?

Xalqimiz bugun baland ruh, yuksak ishonch, mushtarak g'oya va maqsadlar bilan yangicha hayot sari intilmoqda. Yoshlarimiz ertangi kun tarixini aynan bugun yozishi lozimligi, bu yo'l murakkab ekani, ammo yangi O'zbekiston sharoitida uni amalga oshirish imkoniyati tobora kengayib borayotganini his etmoqda.

Biz, yangi o'zbekistonliklar yangi tarix yaratmoqdami. Bugunimiz, shubhasiz, kelajak uchun, odamlarimiz orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi, boshqalardan kam bo'lmaydigan farovon hayot qurish yo'lida ko'plarga namuna bo'la oladigan sifatleri bilan ajralib turibdi.



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Shu bois, biz yangi jamiyatni barpo etish niyatida o'z qarashlarimiz, maqsad-muddaolarimizni zamonga mos, ayni paytda o'tmish tajribasidan ibrat olgan holda o'zgartiryapmiz. “Tarix sinovlaridan o'tgan haqiqat shuki, — deb yozadi Prezidentimiz, — o'zini o'zgartirishga qodir bo'lgan, vaqtini — imkoniyatga, imkoniyatni — yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq — buyuk xalqdir. Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o'zgartira oladi, ko'zlagan muros-maqsadlariga albatta erishadi”.

Bugun odamlarning ongu shuuri, hayotga qarashlari, davlat va jamiyatga munosabatlari o'zgarib bormoqda. Bu esa yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit yanada barqarorlashishiga imkon yaratmoqda. Ijtimoiy-ma'naviy muhit mamlakat va millat taraqqiyotini ta'minlovchi, odamlarda yaratuvchanlik kayfiyatini shakllantiruvchi, jamiyat a'zolarida ertangi kunga ishonchni oshiruvchi muhim omildir. Sholi kurnaksiz bo'lmagani kabi ayrim masalalarda muayyan kamchiliklar yuz berayotganini ham tan olishimiz kerak. Masalan, to'y-hasham va ma'rakalardagi dabdababozlikdan hanuz qutulolganimiz yo'q. O'zbekning tug'ilganidan to'vafot etgunicha bo'ladigan eng katta orzusi — to'y qilish. Duoga qo'l ochgan millatdoshimiz borki, albatta, to'y qilishni, to'y'lariga ko'plab mehmon kelishini Yaratgandan so'raydi.

Shu ma'noda, to'y o'zbekning borlig'i, milliy qadriyatimiz, odamlarda bir-biriga munosabatlarni belgilab beradigan barometr, desak, to'g'ri bo'ladi. Haqiqatan, shunday. To'ylarni o'tkazish jarayonida odamlarda insonparvarlik, mehribonlik, izzat-ikrom, mehmonnavozlik, inoqlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Muqaddas dinimizda to'ylarda xush-muomala bo'lish, odamlarga taom ulashish savobi ulug' ishlar sanaladi. Ixlosli xalqimiz qadimdan bu odatlarga amal qilgan. Bundan 25-30 yillar avval o'zbekning to'yida quruq dasturxon, non, choy va bir kosa issiq ovqatdan bo'lak narsani topishning o'zi amrimahol edi. Odamlarimiz “eldan uyaliib” birovlardan qarz ko'tarib, qiyinchilik bilan tadbirni o'tkazar, keyin esa yillar davomida o'sha qarzni uzolmay, qiyalib yurardi. U vaqtlarni aslo unutib bo'lmaydi.

Xo'sh, endi-chi? Endi hammasi o'zgardi. Odamlar o'zgaryapti, to'ylar o'zgaryapti, taomnomalarimiz, ularga munosabatimiz ham o'zgarib boryapti. Hayotimiz qanchalar farovonlashganini to'ylarimiz misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi.

Issiq-sovuq kunlarda qiyinchilik bilan mehmon kutgan, Yaratgandan “yaxshi havo” so'ragan o'zbek uchun endi ob-havo qanday bo'lishining mutlaqo farqi yo'q. Mamlakatimizning uzoq-uzoq qishloq va ovullarda ham to'yxonalar, restoranlar ochilmoqda. Ular har kuni band. Odamlar bir kunda ikki-uch marotabadan to'y oshiga

boradi, ayollarimiz esa har bitta to'y uchun yangi kiyim olish dardida. San'atkorlar talash. Men mutlaqo oshirib yuborganim yo'q. Bularning barchasi bugungi o'zbekning holati.

Albatta, to'y yaxshi. Ammo uning ijtimoiy oqibatleri haqida ham o'ylaydigan vaqtimiz kelmadi-mikan? To'y o'tkazish dardida birovlardan qarz ko'tarib, o'z vaqtda to'lay olmay, ruhiy, jismoniy qiyinchiliklarga uchrayotganlar kammi? “Mahalla nima deydi, odamlar-chi?” degan mulohaza ortida o'z imkoniyatlarini chamalay olmay, qarzga botganlar qancha?

Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqaror bo'lgan har qanday jamiyatga to'ylar yarashadi. Biroq yana bir jihatchi unutmashlik kerak: me'yordan oshgan to'ylar, turli tadbirlar jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitiga zarar yetkazadi.

Shuning uchun ham O'zbekiston hukumatining to'ylarni ixchamlashtirish, haddan oshishlarning oldini olish bo'yicha chiqargan alohida qarorini, to'g'risi, xalqimiz anchadan buyon kutib turgan edi. Qarorga ko'ra, ortiqcha xarajat talab qiladigan rasm-rusumlar, jumladan, “kuyov navkari”, “chorlar”, “ota ko'rdi”, “sep yoydi” va motam marosimlaridagi “yetti”, “payshanba”, “yakshanba”, “yigirma”, “qirq”, “yil oshi”, “pul tarqatishi”, “mato tarqatish” kabi marosimlarni o'tkazish taqiqlandi.

“

Ayniqsa, to'y-ma'raka va oilaviy marosimlarni o'tkazishda qator cheklovlar qo'yilgani xalqimizni xursand qildi. Masalan, oilaviy tadbirlarda qatnashuvchilar soni 200, osh marosimida 250, qo'shaloq to'ylarda 250, qo'shaloq to'y oshlarida 300 nafargacha etib belgilangani adolatli ish bo'ldi.

Yaqinda bir tanishimiz to'y qildi. 200 kilogramm guruch damlab, osh berdi. Turnaqator bo'lib odamlar kelyapti. Bir tomondan xursand bo'ldim: to'ylar odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, ular o'rtasida mehr-oqibatni shakllantiradigan tadbir degan fikr keldi xayolimga. Ammo boshqa tarafdin o'ylanib qoldim. Nahotki soat 11:00 da berilgan oshga kelib-ketuvchilarning hech biri ishlamas? Yoki ularning barchasi ishini tashlab keldimi? Kulishni ham, yig'lashni ham bilmaydigan holat shundaki, to'y oxirida tadbir egasidan “mehmonlarni rosa chorlabsiz” desam, mezbom “Kelganlarning 30 foizini tanimayman”, dedi.

Gapning to'g'risi, bu holat meni o'ylantirib qo'ydi. Biz bugun yangi jamiyat, yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans asoslarini barpo etishni o'z oldimizga maqsad

qilganmiz. Biroq ish payti shuncha odamning to'y tadbirida yurishini tushunish qiyin...

Bir paytlar AQSHlik mehmonlar o'zbekning to'yida bo'lib, izi uzilmas odamlar oqimini ko'rganda “O'zbeklar ishga ham shu tarzda kelsa, O'zbekiston bu dunyodagi eng rivojlangan, odamlari farovon davlatga aylanas ekan”, degan ekan. Bu gapda chindan ham haqiqat bordek tuyldi menga.

To'y boshqa xalqlarda oddiy, kundalik ish, tadbirdek tuyulishi mumkin. Biroq o'zbek uchun muhim qadriyat, bir umrlik orzu-niyat, ko'pchilik oldidagi mas'uliyat, odamgarchiligimiz, mehmonsevarligimiz ifodasi. Biz ana shu qadriyat va mas'uliyat hissingini suiste'mol qilinishiga qarshimiz.

Xullas, to'ylarimizning isrofgarchiliksiz, ixcham o'tkazilishi madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va axloqimizning yaqqol ko'rinishi bo'lishi kerak. Ana shular haqida o'ylab turib yana milliy tariximizga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Zotan, isrofgarchilikka yo'l qo'yish, sarf-xarajatlarda adashish milliy o'zligimizni mustahkamlashga emas, beqarorlashtirishga yo'l ochadi. Bunga misollar juda ko'p.

Hadislarda aytilganidek, “Eng barakali nikoh — xarajatlari yengil bo'lganidir”. Aslini olganda, nafaqat to'y marosimi, turli tadbirlarda, balki oddiy hayotda ham isrofgarchilikka yo'l qo'yishimiz xatodir. Shayx Muhammad Sodiqli Muhammad Yusufning “Vasatiya — hayot yo'li” kitobida yozilishicha, vasatiya istilohda shaxsni haddan oshish va kamchilik sodir etish tarafdorlariga og'ib ketishdan saqlaydigan maqtoqli holatdir. Boshqacha qilib aytganda, u ikki taraf orasida bir-biridan ustun bo'lib ketmaydigan tarzda muvozanat va adolatni saqlashdan iborat. Bunda chegaradan chiqish yoki nuqsonga yo'l qo'yish, ashaddiy qattiq olish yoki o'ta bo'sh qo'yib yuborish bo'lmaydi. Balki afzaliga, adolatlisiga, yaxshisiga va mukammaliga erishiladi.

Muallif islom dinida shaxsiy mulkchilikka keng yo'l ochilgani, shu bilan birga, shaxsiy mulkni havoyi nafsiga binoan tasarruf

qilishga ham yo'l qo'yilmasligini qayd etadi. Mol-mulkni behuda sarflash “isrof”, boylikni behuda sarflaydigan odam “safihy” — esi past deyilishini uqtiradi.

Haqiqatan, bugungi musobaqali dunyoda yangi ixtirolar, yangiliklar, g'oya va ta'limotlar yaratish uchun kurash ketayotganini, bularning barchasi insoniyat hayotini yanada xavfsiz, farovon qilayotganini ta'kidlagan holda to'y va boshqa tadbirlar mo'tadil bo'lishi, bu borada musobaqalashish jamiyatda noxush holatlarga olib kelishi mumkinligini doim yodda saqlashimiz zarur deb bilaman.

Biz tarix — ibrat manbai ekani haqida ko'p gapiramiz. Rostdan ham shunday. Tarixdan saboq olmaslik esa nodonlikdir. Uzoqqa bormaylik: pandemiya davrida 20-30 odam bolin to'y qilishga ko'nikdi. Hozir ham ko'pchilik o'sha davrning to'ylari haqida gap ketganda, “Bo'lar ekan-ku, ixcham to'ylar bizga saboq bo'lishi kerak edi”, deydi.

Nahotki, yaqin tariximiz bo'lgan jadid ma'rifatparvarlarimizning kuyinib aytgan gaplari, o'sha davrning achchiq dasturlari bizni o'ylantirmasa? Ular to'ylarimizdagi haddan oshishlar, isrofgarchiliklarni o'sha davrning illati, millatni buzuvchi holatlar deb atagan. “Bu borada, — deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari, — ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimdagi yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir”.

Jadid bobolarimizning asarlarini o'qir ekanmiz, go'yo ularning davriga borib qolgandek bo'lamiz. Jadidlik harakatining faol ishtirokchilaridan biri Hoji Muin “To'y va aza marosimi haqida” maqolasida bunday yozadi: “Mana, biz Turkiston xalqi ham ilmsizligimiz sababli turli marosim va odatlar yuki ostinda ezilib, muning uchun axloqiy va moliy jihatdan g'oyat qo'b zararlar ko'rmak-da bo'lg'on bir millatimiz. Bizlarni o'zig'a asir etib olg'on urflardan eng ko'b zararli va yomonrog'i xatna, nikoh to'ylari bilan aza marosimidir. Bizning xalq “mol va jon ketsa ketsun, obro'y ketmasun”, deb xatna yoki nikoh va yo aza marosimini o'run'ga ketturmak uchun qo'llarinda bor narsalarini 1-2 kunda barbod etadilar, qarzdor bo'lalar. Qarzlarni ado eta olmag'ach, oxiri “molni odam topar, odamni mol topmas”, deb o'z bog' va hovillarini sotib, qarzlari'ga beralar. Shul yo'l bilan bir yoqdan mol va mulklaridan ayrilib darbadar va xoru zor bo'lalar. Ikkinchi yoqdan haqiqiy obro'ylarindan ajralib oxiratga safar etalar”.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, jadid bobomiz shu o'rinda to'ylar tufayli odamlarimizning axloqiy va moliyaviy zarar ko'rganiga urg'u bergan. Har qanday axloqsizlik va

qilur? Nikoh, xatna — bu ikki bala shundog' qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulub bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtahol, ya'ni o'turarg'a xona va bog'i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so'm sarf etar va o'gul xatnasi uchun hech bo'lmaganda ming so'm. Har bir benavo kishi bu mavridlarga 200 so'mdan 1000 so'mgacha sarf etar. Boy va zo'raki boylar esa besh ming, o'n minglab sarf etar. Oxiri nima bo'lur? Nima bo'lur deysiz? Otabosidan qolgan mulk va vatanini o'z ixtiyori ilan zo'raki boyni o'zi o'lgandan so'ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabi'ga sotib, to'y va ta'ziya qarzini berar. O'zi sotmaganda sudg'a sotilur”.

Bu borada Abdulla Avloniy ham kuyinib gapiradi. “To'y haqida” she'rida yozgan “O'g'lingni o'qitishga pul topolmaysan, biroq to'y qilib osh bermoqqa doim tayyorsan”, “Kambag'al sening to'yingga kelsa, nari tur, deysan, boy kelsa, to'rga

“

To'y o'zbekning borlig'i, milliy qadriyatimiz, odamlarda bir-biriga munosabatlarni belgilab beradigan barometr, desak, to'g'ri bo'ladi. Haqiqatan, shunday. To'ylarni o'tkazish jarayonida odamlarda insonparvarlik, mehribonlik, izzat-ikrom, mehmonnavozlik, inoqlik kabi fazilatlar shakllanadi.

chiqarasan”, “To'y sen uchun odatmi, bid'atmi yoki shavkatmi?”, “Boshqa millatlar taraqqiyda, sen esa to'y bilan ovorasan”, “Kunlarni osh yeb, qornimizni siypalash bilan o'tkazaveramizmi?” kabi fikrlar bugun ham muayyan ma'noda dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Turli sabablar, xizmat asarlari tufayli mamlakatimizning ko'plab hududida bo'lishga to'g'ri keladi. Odamlarimizning farovonlashib borayotgani, hayotdan roziligi, kayfiyatidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rib quvonaman. Ayni paytda ba'zi joylarda to'ylarni o'tkazishdagi haddan oshishlarni ko'rib ezilaman.

Hududlardan biridagi nikoh to'yi marosimida qatnashishga to'g'ri keldi. To'ydan bir kun oldin to'y egasining sinfdoshlari uchun alohida dasturxon yozildi. Undan so'ng turmush o'trog'ining, keyin esa maktabda o'qiydigan farzandining sinfdoshlari keldi. Ertalab nahor oshi boshlandi. Kunning ikkinchi yarmida nikoh to'yiga fотиha berildi.

Shunchalik isrofgarchilik shartmi degan savolimga to'y egasidan: “Bizda shu urf bo'lgan, axir mahalla nima deydi?” degan javobni eshitdim. Biz “Mahalla nima deydi, odamlar nima deydi?” degan savollardan qutulmasak, bu masalani hal etish qiyinga o'xshaydi.

Odatda to'yga dam olish, yaqinlarimiz bilan suhbat qurish uchun boramiz deb o'ylayman. Amalda-chi? Amalda bugungi o'zbek to'yi, asosan, nikoh to'yi odamga azob

ma'naviy muhit barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xo'sh, to'ylarimizni tartibga solsak, nimaga erishishimiz mumkin? Nazarimda, birinchidan, qattiq mehnat, zo'riqish natijasida topilgan moddiy ne'matlarimizni, peshona teri evaziga qo'lga kiritilgan boyligimizni behuda sarflashdan qutulamiz.

Ikkinchidan, ortgan mablag'ni farzandlarimiz kelajagi yo'lida sarflash, ayniqsa, ularni zamonaviy bilim olish yo'lida ishlashga imkon paydo bo'ladi. Yoshlar uchun, ularning kelajagi uchun sarflangan kapitaldan muhim narsa yo'q.

Uchinchidan, to'ylarning tartibga keltirilishi jamiyatda muayyan ma'noda mavjud bo'lgan ijtimoiy tengsizlikning oldini oladi. O'zbekning o'zbekligi uning vijdoni bilan bog'liq. To'y qilib, imkoniyati kamligidan ko'ksi o'ksib, qiyaligan odamning holatini tushunish qiyin emas.

To'rtinchidan, to'ylarning tartibga kelishi jamiyatda o'ziga xos axloq mezonlari shakllanishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, tartibli, kamchiqim, to'g'ri xarajat asosida qilingan to'ylar ko'pchilikka namuna bo'ladi. Shu ma'noda, bunday to'ylar tarbiya maktabiga aylanadi.

Beshinchidan, tartibli to'ylar, shubhasiz salbiy holatlar, xalqimizga xos bo'lmagan illatlardan barchamizni xalos etadi. Bularning barchasi yangi O'zbekistonda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi muhim omildir.



MA'RIFAT KOSHONASI YARASHGAN MANZIL

Bugun kitobxonlik, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilib, ko'plab samarali ishlar qilinmoqda. Jumladan, "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila", "Kitobxon mahalla" singari tanlovlarni o'tkazish va g'oliblarni munosib rag'batlantirish, eng sara asarlar mualliflarini e'tirof etish an'ana tusiga kirdi.

Bu jarayonda millatimiz ziyolilari ham daxldorlik hissi bilan barchaga namuna bo'lmoqda. Himmati baland, mamlakat va xalq kelajagi, farzandlar kamoloti haqida o'ylaydigan yurtdoshlarimiz joylarda ma'rifat maskanlarini bunyod etib, barchaga namuna bo'lmoqda.

Mana uch-to'rt kundirki, Urgut tumanining Dehqonobod mahallasida duv-duv gap: Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, taniqli adib va shoir, publitsist Abdusaid Ko'chimov kattagina hovlisida o'zi uchun emas, qishloqdoshlari, umuman, urgutliklar va barcha kitobsevarlar uchun kutubxona qurdi.

Dehqonobod mahallasidan yetishib chiqqan olim, taniqli jurnalist, shoir va yozuvchilarning yurtimizda el hurmatiga sazovor bo'lishida ta'lim-tarbiya va kitobning o'ni katta. Ustoz ijodkor tashabbusi va Urgut tumani hokimligi ko'magida tashkil etilgan kutubxona ham ana shu fikrlarning amaldagi ifodasi o'laroq xalqimizga xizmat qiladi. Ikki yil avval Abdusaid Ko'chimov shaxsiy kutubxonasidagi kitoblardan va o'zining yigirmadan ortiq asaridan boshqalar ham bahramand bo'lishini istab, bu egzu ishni boshlagan edi. Xayrli niyatni qo'llab-quvvatlovchilar va ushbu maqsadga hissa qo'shishni istovchilar ko'paydi. Natijada o'n mingga yaqin kitob to'plandi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi mazkur ziyo maskanini ham o'z tarmog'iga qo'shib,

ommalashtirilishini istagan O'zbekiston mahallalari uyushmasi ham kutubxona uchun o'nga yaqin kompyuter jamlanmasi tuhfa qildi. Shuningdek, Yozuvchilar uyushmasi mazkur kutubxonani uyushma tomonidan nashr etilgan kitoblar bilan ta'minlab borishni zimmasiga oldi.

Yangi kutubxonaning ochilish marosimi katta tantanaga aylanib ketdi. Unda



mamlakatimizning taniqli olim va ziyolilari, ijodkorlar, deputat va senatorlar, kitobsevarlar ishtirok etdi. Ular mazkur tadbir o'ziga xos namuna bo'lganini ta'kidlab, ijodkorlarni



urgutlik kitobxonlarning mamlakatimiz bosh kutubxonasi fondidagi asarlardan onlayn foydalanishiga imkoniyat yaratdi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati esa kutubxonani zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlab, internet orqali Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti kutubxonasi bilan bog'ladi. Mahallada kutubxona tashkil etilishidan xursand bo'lgan va bu tashabbus



shunday kutubxonalar tashkil etishga da'vat qildi.

— Kutubxona zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, hozircha 15 ming kitob fondiga ega, — deydi Yozuvchilar uyushmasining Samarqand viloyati bo'limi rahbari Toshpo'lat Tugalov. — Kitobxonlar va o'quvchi yoshlar bu yerda internet xizmati va elektron kitoblar zaxirasidan bemaol foydalanishi mumkin. Ziyo maskani Dehqonobod mahallasiga juda yarashib turibdi. Uning respublika markaziy kutubxonasi tizimiga ulangani bois, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, kitobxonlik kechalari, ijodiy uchrashuvlar o'tkaziladigan manzil sifatida xalqimizning sevimli maskaniga aylanishi shubhasiz.

Asrlar davomida o'z isbotini topib kelayotgan haqiqat shuki, kitoblar faqat va faqat ezgulikka xizmat qiladi. Insonni har qanday qabih ish va yomon niyatdan qaytaradi. Kitob sahifalarini varaqlaganimiz sari yaxshilik yo'lida odimlayveramiz va faqat foyda topamiz. Bunday fayzni boshqa hech nima va hech qayerdan topib bo'lmaydi.

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Muhtarama ULUG'OVA,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Bir dona anor hikmati

"Atlas" firmasida ishchi bo'lib ishlagan otam mulla Muhammadxon olti farzandli ro'zg'orini 60 so'm oylik bilan tebratardi. Yaxshi ishlov berilmagan qora charm sumkasida har kuni nimadir, kuz kunlarida esa, arzon bo'lgani uchun bo'lsa kerak, yorilib ketgan anorlarni olib kelardi. Xursand bo'lganimizni, ishtaha bilan shoshib-pishib anor yeyishimizni kulimsirab kuzatardi.

Shunday paytlarda bu ajoyib ne'matning biror donasi yerga tushib ketsa, darrov olib, artib-pulab og'zimizga solardik. Anor donasi mayda-ku, topolmay qolsak, hech kim yo'qolsa yo'qolibdi-da deb qo'ya qolmasdi. Astoydil axtarib topmaguncha, boshqa narsaga qo'l urmasdik. Chunki bizga bobo va buvilimiz, otanomiz anor haqida gapirganda "Bu mevaning har donasida baraka yashiringan. Shuning uchun biror donasini ham isrof qilmay, yerga tashlamay yeyish kerak" deb o'rgatgan edi. Shu ko'nikma, dilga o'mashib qolgan shu ishonch haligacha bir dona gurch, no'xatdekkinah ushbu, bir dona uzumini isrof, uvul qilishga yo'l qo'ymaydi.

Bugungi aksariyat yoshlar yuqorida men aytgan holatini yo'qchilikdan, xasislikdan, o'ta qattiqqo'llikdan deb o'ylashi mumkin. Haqiqatan, yosh bolasidan yerga to'kilgan nuqradek mevaniyam topishni, uvul qilmay yeyishni talab qiladigan kattalarni hozirgi zamonada kimlardir ziqna, nazari past, toshbag'ir deb atashi bor gap. Ammo hamon esimda, biz — opa-singillar dasturxonga to'kilgan osh guruchlarini o'z ixtiyorimiz bilan kim ko'p topishga bahslashib terib yer edik. Bu ishni zavq-u ixlos, mehr bilan, jonu dildan astoydil bajarardik. Sababi, otanomiz, qarindosh-u qo'shnilar aqlimizni taniy boshlaganimizdan nonning uvog'i bo'ladimi, mevayyu sabzavotlarning donasi, shingilimi — hammasi qutlug' rizq-nasiba ekanini, tandir to'la non bug'doy, gozon to'la osh sholi, so'ridagi uzum shingilu donalardan tashkil topгани, ularning har birida zahmatkash insonlar mehnati borligini, uvul qilsak, baraka yo'qolishini ongimizga singdirishgandi. "Baraka" so'zining ma'nosini aytib berolmasak ham yosh qalbimiz bilan uning mantig'ini his qilardik.

Ulg'ayganimiz sayin kattalar nasihatlari, amallari bilan kiyim-kechak, kitobu daftar, xonadonimizdagi buyumu anjomlar, vaqtning eng kichik bo'laklari ham arzimasa emasligi, ularni qadrlash lozimligini tushuntirib, uqtirib borishdi. Keyin angladimki, hamma sohada bo'lgani kabi tarbiyada ham tanishtirish, tushuntirish, uqtirish, malakayu ko'nikma berish soddadan murakkabga qarab borarкан.

Musaffo havo, pokiza oqimlar kabi...

Inson har bir so'zi-yu xatti-harakatlaridan niyati nimaligini anglab, ana shu maqsadga chin dildan astoydil qo'l urmas ekan, biror ishd o'zigayam, jamiyatgayam naf keltirishi qiyin. Prezidentimiz mamlakat ijodkorlari oldiga milliy kontent yaratishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Ha, globallashuv davrining dolzarb vazifalardan biri — milliy kontent yaratishning eng muhim jihati shu — xalqqa taqdim etilayotgan badiiy, madaniy, san'at asarlari mohiyatiga, ularning qahramonlari zo'rih-yu botiniga o'zbekona qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy ruhniyat qondek, jondek singdirilishi lozim. Shuningdek, ibratli fazilatlar, egzu amallar, xalq-u vatan ozodligi, obodligini yuksaltiruvchi natijalar ularning hosilasi, tabiiy mevasi sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Unutmaylikki, oila, farzandlar, ayollik vazifalari haqida "ommaviy madaniyat"

vakillaridan o'mak olib, ularning hayotiga taqlid qilayotgan bekaga atlasdan, adrasdan ko'ylak kiydirib qo'yish milliylik, milliy kontent elementi emas. Bolalari bilan xamir qorib, non yopishdan, uyda bor masallig'idan somsa pishirishdan, dilbandlari yuz-ko'zi, so'zlaridan zavqlanib, dasturxon tuzashdan ko'ra, choyxona yoki restoranda "gap"chi davradoshlari bilan o'tirishni afzal ko'radigan ayolning oldiga paxta gulli choynak-piyola, sopol lagan qo'yib videolavha olish, hosili yaxshi bo'lmagan dalasiga rahbar kelishini eshitib, quruq chanoqlarga paxta yopishtirib chiqqan "paxtakor"ning "ijodkorligi"dan farq qilmaydi.

Milliylikni aniqroq tasavvur etishimiz uchun yorqin misol keltiraman. Bir daqiqa O'zbekiston xalq artisti Lutfixonim Sarimsoqovaning "Sen yetim emassan" badiiy filmida ijro etgan ona siymosini ko'z oldimizga keltiraylik. Shu o'rinda O'zbekiston xalq artisti Maryam Ixtiyorovaning bir gapi yodimga tushib ketdi: "Ustozimiz Lutfixon aya farzand ko'lmaganlar. Umr yo'ldoshi bilan bir-birini e'zozlab, qadrlab o'tdilar. Bolalari bo'lmasa Lutfixon aya eriga "dadas"i deb murojaat qilardi".

Shu bitta gapdan bu farishta aya oilani, turmush o'rog'ini, farzand degan ne'matning nechog'liq ulug'ligini qalban his etganini anglash mumkin. Mana shunday qalbnig oljanoblik, bolajonlilik, fidoyilik, mehribonlik tuyg'ularidan nur olgan qiyofa, so'zlar, xatti-harakatlar "Sen yetim emassan" badiiy filmning har bir epizodida chin o'zbek ayoli fitratidagi go'zal milliy fazilatlarini, ruhiniyatni taratib turgandek. Ayni shuning uchun ham bunday san'at asarlari umri tarixlarni qatitaveradi.

Aytish mumkinki, o'tgan asrda yaratilgan va o'zbek madaniy meroslari sandig'i ganjinalari bo'lib qolgan kino hamda sahna asarlari rejissyorlari zamon yangiliklaridan birinchilardan



bo'lib xabardor bo'lgan, Yevropa madaniyati bilan hamdadan ko'proq tanish shaxslari edi. Aksariyat Moskvada o'qigan, ustozlari ham rusiyazon bo'lgan. Shunga qaramay, ularning ijod mahsuli chin o'zbekona, go'yolari milliy edi. G'ayratibayitlik, soxtalik, to'rma-zo'rakilik yo'q. "Sen yetim emassan", "Mahallada duv-duv gap", "Maftuningman", "O'tgan kunlar" kabi kinofilmlarni ko'z oldimizdan o'tkazsak, undagi obrazlarni, eng avvalo, go'zal milliy qadriyatlar umumlashtirib turadi.

Taajjubki, keyingi davrlarda o'z mamlakatimizning madaniyat, san'at oliy ta'lim dargohlarida o'zbek tilida bilim olgan, malakayu tajribalarga ega bo'lgan ayrim zamonodosh rejissyorlarning sahnada, ekranda yaratgan qahramonlari tabiatida yevropaliklar, turklar, ruslar fikrlashi, hayot tarzi qorishib yotibdi.

Yana aytaman, ko'zida hayo, so'zida andisha, fikrida hikmat bo'lmagan qiyofaga do'ppi kiydirib, atlas ko'rpachaga o'tqazib qo'yganimiz bilan bular milliy manzara bo'lishi mumkindir, ammo milliy kontent yaratishga xizmat qilmaydi.

"O'tgan kunlar" badiiy filmida O'zbekiston xalq artisti Gulchehra Jamilova talqin etgan Kumush obrazining fayzi bo'lakcha. Ayniqsa, hayotining so'nggi lahzalarni yashayotgan, ichini zahar qiyalayotgan yosh ayol tashqaridan Yusufbek hojining ohistagina "Otabek..." degan ovozini eshitgan holatida ham hayo, andisha



chegarasini bosmaydi, "Dadam chaqiryaptilar..." deydi Otabekka uning oldiga tezroq chiqing degan ma'noda.

Tomoshabinlar shu epizoddan ta'sirlanib ko'p gapirishadi. Chunki qahramonning so'zi, holatiga ishonishadi. Shu o'rinda yana bir chiroyli xotira yodimga tushdi. Gulchehra Jamilovaning "O'tgan kunlar" filmi suratga olish jarayonlari bilan bog'liq xotiralardan bir lavha: "Kumush ancha ayрилqidan so'ng Marg'ilondan Toshkentga kelgach, Otabek bilan ilk uchrashuvi lavhasini ijro etish menga juda qiyin bo'lgan, tasvirlar olish jarayoni ancha vaqtga cho'zilgan. Sababi, rejissyor talqini bo'yicha Otabek xonaga kirgach, men yashirilib turgan joyimdan chiqib uning quchog'iga otulishim kerak edi. Lekin... parda orqasidan shahd bilan chiqib uch-to'rt qadam qo'yardim-u, uning yaqiniga borganda to'xtab,

Sochilib yotgan durdonalar

Milliy kontent ajdodlarimiz ruhiga har kuni halol rizq-nasiba bilan bag'la singdirib borgan poklik, rostgo'ylik, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, yurtparvarlik, elparvarlik kabi insoniy fazilatlarini shakllantiruvchi omillarni tiklash, hayot tarzimizga tatbiq etish uchun suv bilan havodek zarur bizga. Zamonaviylikni hech kim inkor etmaydi. Ammo zamonaviylik "hozir hamma shunaqa" degan o'z-o'zini oqlov bilan ekrandalardan tinmay urush, zo'ravonlikni targ'ib qilayotgan multfilmlarini tomosha qilayotgan bolakay boshiga do'ppi kiydirib, beliga belbog' bog'lab qo'yish milliy kontent elementi emas.

Keyingi paytlarda madaniyat, ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar oldiga yosh avlodda milliy g'urur, ma'naviy merosimizga qiziqish va muhabbatni tarbiyalaydigan, jahon hamjamiyatida qadddiy qadri yuksalib borayotgan yangi O'zbekistonning o'zligini namoyon etadigan shaxslarni ulg'aytirishga hissa qo'shadigan multimedia asarlar yaratish vazifasi qo'yildi. Buning uchun salmoqli mablag' ajratilmoqda.

Harakatlar boshlanib ketgan, bu ishlarining markazi — Toshkent, uni amalga oshiradiganlar asosan poxtaxtning ommaviy axborot, madaniy-ma'rifiy tashkilotlari xodimlari. Shu o'rinda jarayonlarni kuzatganda ko'ngildan kechadigan, ayrim tajribali insonlar davrasida muhokama qilinadigan bir ishtibohni aytmoqchiman. Ya'ni milliy kontent yaratish ishlarining boshida turgan, buning uchun erva tuza-yotgan, tayyor mediamahsulotlarni qabul qilib olayotgan mas'ullar hujjatlar tayyorlashni yaxshi biladi, sohaga oid yangi atamalarni tizib burro interv'yular berishadi va hokazo...

Ammo ularning qalbiga, tarbiyasiga, e'tiqodiga milliy qadriyatlar mohiyati qay darajada singdirilgan? Bilim va tajribalari madaniy-ma'naviy meroslarimizning qanchalar ko'hna bo'lsa, shunchalar zamonaviy ekanini anglashga, anglatishga yetarlimikan? Ularining o'zlari yashash tarzi, faoliyati bilan atrofidagilarga milliy o'zlikka sadoqat bobida ibrat bo'la oladimi?

Faqat kompyuterlar oldida o'tirib yoki tuzilgan senariylar asosida tashkil etilgan tadbirlarni tasvirlarga olib, keyin ulardan g'aroyib effektlar yordamida tayyorlangan videoroliq filmlar bilan haqiqiy milliy kontent asosini yaratib bo'lmaydi. Zero, milliy kontentning joni, uyg'oq qalbi bo'ladigan egzu go'yolardan tortib, betakror go'zal elementlarga xurrimizning to'rt tomonidagi eng chekka hududlardagi tog'li, cho'lli, zamonaviy hamda o'z-o'ziga bo'lib borayotgan sahar-u qishloqlari, ovullaridagi dehqon-u chorvador, bog'bonu konchi, baxshi-yu o'lanchi, chevar-u qandolatchi, ishchi-yu xizmatchilardan tortib, ulug'vor poxtaxtimizning sablatli inshootlarida eng zamonaviy fan-texnika sohasida mehnat, ijod qilayotgan vatandoshlarimizning hayoti, faoliyatida duru marjonlar anor donalari kabi sochilib yotibdi. Endi ularni terish, asarlarda aks ettirish, eng muhimi, yoshlar ongiga singdirishga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim. Shunda oldimizga qo'yilgan vazifani bajargan bo'lamiz.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.

34751 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 01:46